



## TOSHKENT SHAHRI SHAYXONTOHUR TUMANIDA GIYOHVANDLIK VOSITALARINI, ULARNING ANALOGLARINI YOKI PSIXOTROP MODDALARNI TARG'IB QILUVCHI HUQUQBUZARLIKLARNI OLDINI OLISHNING ILMIY-NAZARIY TAXLILI

Shukurov O'tkir Ruziyevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi  
magistratura tinglovchisi, podpolkovnik  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20341948>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 18-may 2026 yil  
Ma'qullandi: 20-may 2026 yil  
Nashr qilindi: 22-may 2026 yil

### KEYWORDS

sintetik giyohvand moddalar,  
alpha-PVP, mefedron,  
zakladchiklar, Telegram  
kanallari, narkotrafik,  
profilaktika, Shayxontohur  
tumani, taklifni kamaytirish,  
talabni kamaytirish, yangi  
psixoaktiv moddalar, kiber-  
nazorat

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada Toshkent shahri Shayxontohur tumanida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarni targ'ib qilish va tarqatish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirilgan. Maqolada zakladchiklarning faoliyati va Telegram kanallari orqali giyohvand moddalarni sotishning zamonaviy mexanizmlari alohida o'rganilgan. Shuningdek taklif va talabni kamaytirish tamoyillariga asoslangan holda, Shayxontohur tumanida kompleks profilaktika choralari kuchaytirish, Telegram kanallarini monitoring qilish, yoshlar orasida targ'ibot ishlarini faollashtirish va xalqaro tajribadan foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.*

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning tarqalishi hamda targ'ib etilishi zamonaviy jamiyatning eng jiddiy tahdidlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahrining Shayxontohur tumani kabi zich aholi yashovchi, transport yo'llari ko'p, savdo va ta'lim muassasalari joylashgan hududlarda bu muammo o'zining o'tkir ko'rinishini yaqqol namoyon etmoqda

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalarning tarqalishi hamda targ'ib etilishi zamonaviy jamiyatning eng jiddiy tahdidlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahrining Shayxontohur tumani kabi zich aholi yashovchi, transport yo'llari ko'p, savdo va ta'lim muassasalari joylashgan hududlarda bu muammo o'zining o'tkir ko'rinishini yaqqol namoyon etmoqda.

Giyohvandlikka qarshi kurash nazariyasida taklifni kamaytirish (supply reduction) va talabni kamaytirish (demand reduction) tamoyillari markaziy o'rin tutadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha idorasi (UNODC) ta'kidlashicha, samarali profilaktika faqat ilmiy dalillarga asoslangan bo'lgandagina uzoq muddatli ijobiy natija beradi. Xorijiy olimlarning fikricha, sintetik moddalarning tez o'zgarishi, yangi analoglarning doimiy paydo bo'lishi va raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi hukumatlardan qonunchilikni va nazorat mexanizmlarini muntazam takomillashtirishni talab etadi. Masalan, chex olimi J. Patocka (2020) sintetik katinonlar, xususan alpha-PVP haqida gapirib, uni «Flakka» nomi bilan tanilgan xavfli modda deb ataydi va shunday yozadi: «Yangi

psixoaktiv moddalarning tez tarqalishi hukumatlarning qonunchilik va nazorat choralarini doimiy ravishda yangilab turishni talab etadi, chunki bu moddalar fatal holatlarga olib kelishi mumkin» [1].

Fransuz tadqiqotchisi L. Karila va hammualliflari (2018) alpha-PVP va MDPV moddalarini «egizaklar» deb atab, ularning kokain va amfetaminga nisbatan ancha kuchli ta'sir ko'rsatishini qayd etadilar. Ularning ta'kidlashicha, bu moddalarning targ'iboti asosan ijtimoiy tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda va bu jarayonni nazorat qilish an'anaviy usullar bilan tobora qiyinlashmoqda [2]. Shuningdek, G. De la Rosa va hammualliflari (2025) alpha-PVP ning inson organizmiga ta'sirini o'rganganlarda, bu modda dopamin va noradrenalinning qayta qabul qilinishini kuchli ingibitsiya qilishini, bu esa kuchli eyforiya, paranoyya, yurak ritmining buzilishi, hayajonlanish, agressiya va hatto o'limga olib kelishi mumkinligini isbotlagan [3].

Shayxontohur tumanida 2023-yilda qayd etilgan holatlar mazkur muammoning dolzarbligini yaqqol ko'rsatadi. 2023-yil 3-avgust kuni soat taxminan 00:30 larda tuman hududida xizmat olib borayotgan xodimlar tomonidan shubhali ikki nafar fuqaro to'xtatilib, tekshirilganda, o'zini S.B.E. deb tanishtirgan shaxs o'z xohishi bilan egasida bo'lgan qora rangli trikosining o'ng cho'ntagidagi shaffof paketga ichidagi jigarrangli, o'tkir hidli saqichsimon moddani topshirgan. Ushbu holatda fuqaro o'zi moddani ixtiyoriy topshirganiga qaramasdan, voqea sintetik moddalarning tumanda ochiq tarqalayotganini ko'rsatdi.

Yana bir jiddiy holat 2023-yil 26-oktyabr kuni kechki soat taxminan 01:00 da ro'y bergan. Shayxontohur tumani, Furqat ko'chasidagi "Binkov" kollej oldidagi ikki nafar fuqaro — A.R.Sh. va S.M.X.ning hatti-harakatlari shubha uyg'otgani uchun ular tuman IIO FMBga olib kelingan. Tekshiruv davomida A.R.Sh.dan shaffof paketga o'ralgan oq kukunsimon modda, plastik trubichka va singan lampochka topilgan. Ekspert-kriminalistika markazining xulosasiga ko'ra, ushbu moddaning umumiy vazni 0,77 grammni tashkil etib, tarkibida alfa-pirrolidinovalerofenon (a-PVP) mavjudligi aniqlangan. Bu moddaning kollej yaqinida topilishi aynan yoshlar orasida tarqalishi xavfini oshiradi.

Shuningdek, 2023-yil 10-dekabr kuni soat taxminan 02:00 da piyodalar yo'lagida harakatlanayotgan B.Yu.G. va S.S.M.dan selofan paketga solingan oq kukunsimon modda topilgan. Ekspertizaning xulosasiga binoan, moddaning vazni 0,21 gramm bo'lib, tarkibida 4-metilmetkatinon (mefedron) moddasi aniqlangan. Ushbu uch holatning barchasida moddalarning kichik miqdorda bo'lishi va fuqarolarning shubhali harakatlari orqali aniqlanishi tumandagi vaziyatning murakkabligini ko'rsatadi.

Ushbu holatlar Shayxontohur tumanida sintetik giyohvand moddalarning faol tarqalishini ko'rsatadi. Bu moddalarning kichik hajmda bo'lishi, nisbatan arzonligi va laboratoriyada aniqlashning murakkabligi ularning yoshlar orasida keng tarqalishiga imkon yaratyapti. Ayniqsa, so'nggi yillarda zakladchiklar faoliyati keskin kuchaygan. Zakladchiklar — bu giyohvand moddalarni shaharning turli yashirin joylariga (daraxtlar osti, podyezdlar, parklar, qurilish maydonchalari, avtomobillar osti va hokazo) joylab, xaridorlarga Telegram kanallari va botlari orqali GPS koordinatalarini yuboradigan shaxslardir. Ular Telegram'dagi maxsus kanallarda moddalarning turi, narxi, sifati, "yangi partiya" va "aksiya"lar haqida reklama qilib, to'lovni kriptovalyuta (Bitcoin, USDT) yoki elektron hamyonlar orqali qabul qiladilar. To'lov tasdiqlangandan so'ng xaridorga yashirilgan joyning surati, video va aniq koordinatalari yuboriladi. Bu usul dilerlarning o'zini xavfsiz his qilishiga, to'g'ridan to'g'ri aloqaning yo'qligiga va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini qiyinlashtirishga olib kelmoqda. Natijada,

zakladchiklar orqali sotish Shayxontohur tumanidagi giyohvandlik jinoyatlarining asosiy usullaridan biriga aylangan [4].

S. Chen (2024) sintetik katinonlarning toksikligini tahlil qilib, ularning ikkinchi o'ringa turgan yangi psixoaktiv moddalar guruhi ekanini ta'kidlaydi. Yevropa va AQSH tajribasi shuni ko'rsatadiki, ushbu moddalarning inyeksion iste'moli VICH, gepatit va boshqa yuqumli kasalliklar xavfini keskin oshiradi. Shuningdek, K. Johnson (2022) ta'kidlashicha, jazo choralari bilan cheklanish o'rniga jamoat salomatligiga asoslangan yondashuv — ya'ni davolash, reabilitatsiya va profilaktikaning ustuvorligi uzoq muddatli samara beradi [5].

Oldini olish strategiyasini ishlab chiqishda ikki tomonlama yondashuvni qo'llash zarur. Taklifni kamaytirish yo'nalishida huquqni muhofaza qilish organlarining operativ faoliyatini kuchaytirish, ekspert-kriminalistika imkoniyatlarini takomillashtirish, Telegram kanallari va botlarini doimiy monitoring qilish, maxsus kiber-politsiya bo'linmalarini kuchaytirish, zakladchiklarning faoliyatini tezkor aniqlash tizimini yaratish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Talabni kamaytirish yo'nalishida esa ta'lim muassasalarida profilaktik darslarni kuchaytirish, oilalarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini joriy etish, ijtimoiy tarmoqlarda qarshi targ'ibotni faollashtirish, yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, sport va madaniy tadbirlarni ko'paytirish lozim. Shayxontohur tumanida maxsus «Giyohvandlikka qarshi tuman dasturi»ni ishlab chiqish, yoshlar markazlarida doimiy seminar va treninglar o'tkazish, IIO xodimlarini sintetik moddalarni aniqlash va zakladchiklar faoliyatiga qarshi kurashish bo'yicha malakasini oshirish, otionalarni jarayonga faol jalb etish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish tavsiya etiladi. Xorijiy tajriba, xususan Finlyandiya, Irlandiya va Portugaliyaning samarali modellarini o'rganish ham foydali bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Shayxontohur tumanida qayd etilgan holatlar sintetik giyohvand moddalarning, xususan Telegram kanallari orqali ishlaydigan zakladchiklar vositasida tarqalishi jiddiy ijtimoiy, sog'liqni saqlash va xavfsizlik xavfi tug'dirayotganini ko'rsatmoqda. J. Patocka, L. Karila, G. De la Rosa kabi xorijiy olimlarning tadqiqotlariga tayanib, faqat huquqiy choralalar bilan cheklanmasdan, ijtimoiy, ta'lim, tibbiy, raqamli va jamoatchilik profilaktik choralarni kompleks kuchaytirish orqali ushbu muammoning oldini olish mumkin. Bu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish, amaliyotga ilg'or texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribadan foydalanish eng dolzarb vazifalardan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Patocka J., Zhao B., Wu W., Klimova B., Valis M., Nepovimova E., Kuca K. Flakka: New Dangerous Synthetic Cathinone on the Drug Scene // International Journal of Molecular Sciences. – 2020. – Vol. 21. – №. 21. – P. 8185. DOI: <https://doi.org/10.3390/ijms21218185>
2. Karila L., Mégarbane B., Cottencin O., Lejoyeux M. Synthetic Cathinones: A New Public Health Problem // Current Neuropharmacology. – 2015. – Vol. 13. – №. 1. – P. 12–20. DOI: <https://doi.org/10.2174/1570159X13666141210224137>
3. De la Rosa G., Papaseit E., Hladun O., Poyatos L., Caicedo D.A., Argote M.C. et al. Acute pharmacological effects of  $\alpha$ -PVP in humans: a naturalistic observational study // Frontiers in Pharmacology. – 2025. – Vol. 16. – Article 1626692. DOI: <https://doi.org/10.3389/fphar.2025.1626692>

4. Kurcevič E., Lines R. New psychoactive substances in Eurasia: a qualitative study of people who use drugs and harm reduction services in six countries // Harm Reduction Journal. – 2020. – Vol. 17. – Article 92. DOI: <https://doi.org/10.1186/s12954-020-00448-2>
5. Johnson K. Harm Reduction Approaches in Drug Policy // Journal of Public Health Policy. – 2022. – Vol. 43. – P. 1–15.



INNOVATIVE  
ACADEMY